



KIYINISH, ODOB-AXLOQ QOIDALARI, SHARQONA KIYINISH MADANIYATI

*Farg'ona viloyati Quva tuman kasb-hunar
maktabi tikuvchilik fanlari o'qituvchisi
Fazliddinova Saidaxon Baxriddinovna.*

Annatsiya: maqolada o'zbek xalqining kiyinish madaniyati, xalqimizning xilma-xil, rang-barang va jozibali liboslari, dunyodagi barcha xalqlar bir-biriga hududiy, madaniy-maishiy, iqtisodiy jihatidan qanchalik yaqinlashganlariga qarab, uning kiyinish madaniyatlaridagi jihatlari ham bir-biriga ko'chganligini anglatish yoritilgan.

Kalit so'zlar: kiyinish, milliy liboslar, hududiy, madaniy-maishiy, iqtisodiy, etnik, urf-odatlar, rangi-tusi, katta-kichik, odatda, bir xil kiyim, ko'ylak kostyum-shim, tufli, botinka, plash, palto, shlyapa yokishapka, libos.

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlar, tabiati bilan ham chambarchas bog'iq bo'lib, uning ma'naviy barkamolligini, milliy madaniyatini belgilaydi.

Dunyodagi barcha xalqlar bir-biriga hududiy, madaniy-maishiy, iqtisodiy jihatidan qanchalik yaqinlashganlariga qarab, uning kiyinish madaniyatlaridagi jihatlari ham bir-biriga ko'chgan. Bu bir mamlakatning ikkinchi davlat tomonidan bosib olinishi, katta xalqqa kichik xalqning ixtiyoriy ravishda qo'shilishi tufayli omillar bilan bog'lanib ketadi.

Dunyoning ko'pgina xalqlarida bo'lgani singari o'zbek xalqining ham kiyinish madaniyatida o'zbek odat va rusumlari ko'plab G'ab va Sharq xalqlari kiyinishi ko'rinishlari mavjud. Ya'niy o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zga xalqlar madaniyatining o'ziga xos tomonlarni o'zlashtirganlar. O'z navbatida



xalqimizning kiyinish madaniyatibilan bog'liq bo'lgan rasm-rusmlar, ayrim liboslar ko'rinishini yaqin Sharq, Sibir, Kavkaziston, Hindiston, Afg'oniston va Ovropaning bir qism xlqlarida uchratish mumkin.

Hozirgi davrda umuman katta kishilar ham rangi-tusi, katta-kichikligi demasa, odatda, bir xil kiyim, ya'ni ko'ylak kostyum-shim, tufli, botinka, plash, palto,shlyapa yoki shapka kiyishadi. Bu kiyimlar dastasi umuman, Ovropaning madaniyatiga doir, xususan qadimgi ingliz xalq milliy kiyim bosh hosilasidir.Taraqqqiyotning eng so'nggi asriga kelib, dunyoda eng faol ishlatiladigan til-ingliz tili bo'lganidek, kiyinish borasida eng qulay va ko'pchilik bo'libkiyinish udumiham ingliz kiyimlari: kostyum-shim, plash-palto va boshqa kiyimlarbo'lib qoldi.

Liboslarning qimmat yoki arzon matodan tikilgan bo'lishiga qaramasdan u kishiga yaqshimli bo'lishi lozim.

Ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan liboslar ham o'zgarib boradi.Dunyo sahnasiga chiqib borayotgan Respublikamiz odamlari ham eng zamonaviy ko'rkam, qulay kiyimlarni kiyishi bilan birga asrlardan-asrlarga o'tib, ko'rkimiz milliy g'ururimiz va iftixorimiz bo'lib, avlodlarga qolishi kerak.

Umuman olganda, bugungi kunda roman-germon xalqlarini kiyinish madaniyati deyarli butunjahon xalqlari madaniyatiga singib borayotgan bir davrda, dunyodagi ko'p xalqlar o'z kiyinish an'analarinilan , madaniyati, insonni tashqi ko'rinishi bilan bog'liq urf-odatlarini u yoki bu darajada saqlab qolgan. Bundan buyon ham asrab-avaylab saqlanishi tabiiy.

Kiyim ma'lum davr va ijtimoiy sharoitda kishilarning go'zallik haqidagi qarashlari mujjasamlashadigan kiyinish madaniyati bilan bog'liq. Tabiiyki shu munosabat bilan kiyinish ko'rinishlari ham uzluksiz o'zgarib boradi.



Yaxshi kiyinish ham o'ziga xos san'at. Kishi bu san'atni egallashi uchun kiyinish talablariga rioya qilibgina qolmay, o'z estetik didini yillar davomida uzluksiz tarbiyalab borishi kerak.

Kiyimlarda inson ta'lim-tarbiyasi aks etgan. Insonning did farosati kiyim-boshda hayotiy harakatlarda, o'zini tuta bilishda ko'zga tashlanadi. Didli, farosatli kishi hamisha shu qiyofani saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish, ichki ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

So'nggi paytlarda yoshlarimizning kiyinish madaniyati haqida ko'p gapirilmoqda. Ularning aksariyatida yoshlar shaniga keskin, e'tiroz fikrlar bildirilmoqda. Ayrim yigit qizlar ko'r-ko'rona moda izidan quvishi, ularning kiyinishi milliy an'analardan uzoqlashoyotgani, tor, kalta, achiq kiyimlarga qiziqish brogan sari ortayotgani, bu odatlar o'zbekchilikka zidligi tanqid ostiga olinmoqda. Albatta bunday munosabatda jon bor. Haqiqatdan ham oxirgi vaqtlarda yoshlarning kiyinishi misilsiz darajada o'zgardi. Vaziyatning bunday tus olishi kishini o'ylantiradi.

Ko'chadagi yoshlarga e'tibor bersangiz, masalan, qizlarimiz egniga tor shim, ochiq koftalar, uzn-tor yoni ochiq, etagi keng, kalta yubka;arni ko'proq kiyishmoqda. Yigitlarimiz esa oq, alvon, qizil, yashil rangli shim, turli xil yengi bor, yengi yo'q maykalar, tizzasidan yuqorida kalta shimlar kiyishadi. Muommo shundaki, ko'pchilik yoshlarimiz qaysi joyda qanday kiyimni kiyishni kerakligini, o'zining gavdasiga qanday kiyim yarashishi mumkinligi haqida o'ylamaydilar ham.

Agar har bir inson o'zining bo'yi, gavda tuzilishi, sochi, ko'z rangini, qomatiga nima yarashishini bilsa, ko'r-ko'rona modaning ketidan quvimaydi. Qolaversa bu sohada unga yordam beradigan mutaxassislar bor.

Dono xalqimiz faxm-farosatli. Odobli insonni faqat yangi kiyinishdan emas, balki uning kiyinish madaniyatidan yaxshigina ajratib oladilar. Ayniqsa yoshga, jinsiga qarab kiyinmaslik beodoblikdir.



Foydalangan adabiyotlar

- 1.Q.M.Abdullayeva, N.S.Gaipova, V.A.Gafurova, Tikuv buyumlarini loyihalash va modellash va badiiy bezash, Toshkent-2016.
2. Mahmud Sattor, O'zbek udumlari, Toshkent-2016.
- 2.Jabborova M.SH. «Tikuvchilik texnologiyasi», T., O'zbekiston, 2004y.
3. Rasulova M.K. “Tikuv buyum larni ishlab chiqarish texnologiyasi”Toshkent,2006 y.
- 4.Qulijonova G.K., S.S.Musaev “Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi”.Toshkent 2002 y.
5. Truxanova M.T., Texnologiya jenskoj i detskoy legkoy odejdi, 2005y.

Internet saytlar ro`yxati:

-www.osinka.ru

-<http://tvorime-gloryan.com>

-<http://www.prosv.ru>

-www.mirkning.com/knigi/hobby-remesla/

-<http://www.modeling-designing.narod.ru>